

# JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 2, 2025 vol. 2

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI**

Tashkent state  
transport university



**JOURNAL OF TRANSPORT**

RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

**E-ISSN: 2181-2438**

**ISSN: 3060-5164**

**VOLUME 2, ISSUE 2**

**JUNE, 2025**



[jot.tstu.uz](http://jot.tstu.uz)

# TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

## JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 2, ISSUE 2 JUNE, 2025

**EDITOR-IN-CHIEF**

**SAID S. SHAUMAROV**

*Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University*

**Deputy Chief Editor**

**Miraziz M. Talipov**

*Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University*

---

The “**Journal of Transport**” established by Tashkent State Transport University (TSTU), is a prestigious scientific-technical and innovation-focused publication aimed at disseminating cutting-edge research and applied studies in the field of transport and related disciplines. Located at Temiryo‘lchilar Street, 1, office 465, Tashkent, Uzbekistan (100167), the journal operates as a dynamic platform for both national and international academic and professional communities. Submissions and inquiries can be directed to the editorial office via email at [jot@tstu.uz](mailto:jot@tstu.uz).

The Journal of Transport showcases groundbreaking scientific and applied research conducted by transport-oriented universities, higher educational institutions, research centers, and institutes both within the Republic of Uzbekistan and globally. Recognized for its academic rigor, the journal is included in the prestigious list of scientific publications endorsed by the decree of the Presidium of the Higher Attestation Commission No. 353/3 dated April 6, 2024. This inclusion signifies its role as a vital repository for publishing primary scientific findings from doctoral dissertations, including Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) candidates in the technical and economic sciences.

Published quarterly, the journal provides a broad spectrum of high-quality research articles across diverse areas, including but not limited to:

- Economics of Transport
- Transport Process Organization and Logistics
- Rolling Stock and Train Traction
- Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields, including Technology
- Technosphere Safety
- Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications
- Technological Machinery and Equipment
- Geodesy and Geoinformatics
- Automotive Service
- Air Traffic Control and Aircraft Maintenance
- Traffic Organization
- Railway and Road Operations

The journal benefits from its official recognition under Certificate No. 1150 issued by the Information and Mass Communications Agency, functioning under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. With its E-ISSN 2181-2438, ISSN 3060-5164 the publication upholds international standards of quality and accessibility.

Articles are published in Uzbek, Russian, and English, ensuring a wide-reaching audience and fostering cross-cultural academic exchange. As a beacon of academic excellence, the "Journal of Transport" continues to serve as a vital conduit for knowledge dissemination, collaboration, and innovation in the transport sector and related fields.

## The importance of the supervisory board in the implementation of effective corporate governance principles in the management of industrial enterprises

B.Kh. Sindorov<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

**Abstract:** The theoretical and practical basis of the research of this article are the results of research by domestic and foreign scientists in the field of corporate governance, aimed at the implementation of modern theories and doctrines of the corporate governance system at railway transport enterprises. In the course of the research, management factors leading to increased competitiveness, ensuring financial and economic stability of industrial enterprises, and further improvement of production indicators were analyzed. The share of transport services in the gross domestic product (GDP) of the country was analyzed. Also, analysis and data on the influence of newly produced freight cars on the dynamics of freight shipments by rail transport in our republic are presented. Proposals and conclusions have been developed to improve the management efficiency of industrial enterprises.

**Keywords:** corporate governance, joint-stock company, export figures, industrial enterprises, freight turnover, shipped goods, production figures

## Sanoat korxonalari boshqaruvida samarali korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etishda kuzatuv kengashining ahamiyati

Sindorov B.X.<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Tashkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tadqiqotining nazariy va amaliy asosini temir yo'l transporti sanoat korxonalarida korporativ boshqaruv tizimining zamonaviy nazariyalari va ta'limotlarini tatbiq etishga qaratilgan mamlakatimiz va xorijiy olimlarning korporativ boshqaruv sohasidagi tadqiqotlari natijalari tashkil etadi. Izlanishlar jarayonida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hamda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yanada oshirishga olib keluvchi boshqaruvga oid omillar tahlil qilingan. Mamlakat Yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmida transport xizmatlarining ulushi tahlil qilingan. Shuningdek, respublikamizda temir yo'l transportida jo'natilgan yuklar dinamikasiga ishlab chiqarilgan yangi yuk vagonlarining ta'siri bo'yicha tahlil va ma'lumotlar keltirilgan. Sanoat korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati, eksport ko'rsatkichlari, sanoat korxonalari, yuk aylanmasi, jo'natilgan yuklar, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

### 1. Kirish

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz iqtisodiyotida chuqur tarkibiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat ulushi bo'lgan yirik kompaniyalarni jahon bozorlariga olib chiqish orqali ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining ortishi, eksport mahsulotlar qatori kengayishi, import mahsulotlarga qaramlik darajasini kamaytirish hamda kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarning hajmi ortishiga erishilmoqda. O'z navbatida milliy kompaniyalarning global bozorlarda raqobatbardosh o'rinni egallashi bevosita ularda joriy qilingan zamonaviy boshqaruv tamoyillariga bog'liq. Shuning uchun ham kompaniyalarda korporativ boshqaruvning ilg'or tajribalarini joriy etish hozirda kun tartibidagi dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Boshqaruvdagi ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlovchi korporativ boshqaruv orqali kompaniyaning tashqi ta'sirlarga bardoshlilikini ta'minlash,

investitsion jozibadorligini oshirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda xodimlarga maqbul mehnat sharoitlarini yaratishga erishilmoqda.

Korporativ boshqaruv sifati kompaniyaning moliyaviy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim elementlardan biri bo'libgina qolmay, kompaniya rivoji uchun investitsiya kiritish istagida bo'lgan portfel investorlar uchun raqobat maydoni hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda Respublikamizdagi davlat ulushi bo'lgan yirik korxonalarni transformatsiya qilish orqali ularda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini qo'llash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashda xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishga katta urg'u berilmoqda. Xususan, temir yo'l transport sanoat korxonalari boshqaruv samaradorligini yanada oshirish, shaffof va ochiq menejmentni joriy etish va yakunda korxonalarining moliyaviy va iqtisodiy holatini yanada yaxshilash hamda investitsion jozibadorlikni

 <https://orcid.org/0009-0009-3445-4661>



oshirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Dastlab, temir yo'l transportini tubdan isloh qilish bo'yicha alohida Prezident qarori qabul qilindi va tizim tarkibidagi eng yirik sanoat korxonalarining tashkiliy huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyatiga o'zgartirildi hamda tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqola mavzusi bo'yicha olib borilgan izlanish va tadqiqotlar natijasida mavjud adabiyotlarning tahlillariga ko'ra jahonning bir qator yetakchi olim va tadqiqotchilari, jumladan, A.Berli, Minz, G.R.Ills, S.Karnauxov va A.Xrabrovalarning korporativ munosabatlar va ularni joriy etishning o'ziga xos afzalliklari bo'yicha tadqiqotlari atroflicha o'rganilib, O'zbekistonlik olimlardan B.B.Berkinov, B.Y.Xodiyev, D.X.Suyunov, A.A.Hoshimov, M.B.Xamidulin, D.B.Rahimova, R.I.Nurimbetov va boshqalarning ilmiy asarlarida mamlakatimizda korporativ boshqaruv shakllanishining o'ziga xos jihatlari, taraqqiyot xususiyatlari hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligi chuqur tadqiq etilganligini e'tirof etish mumkin [1].

M.B.Xamidulina ko'ra "Korporativ boshqaruv – korporatsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitalini shakllantirishga, undan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta'riflash va qabul qilishga doimiy va real ta'sirini ta'minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir" [2].

Shuningdek, kompaniyalarning korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish va shaffofligini ta'minlash bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan tadqiqot va izlanishlar olib borilgan. Xususan, kompaniyalar korporativ boshqaruvi tizimining o'ziga xos jihatlari A.Shlyfer, R.Cherry, S.Bhagat, Ye.Fama, M.Jensen, D.Gladstein, V.Ivashin, T.Mitton, B.Bolton, D.Sarfstein, V.Mekling, L.Clapper, I.Lov, M.Lipton, J.Lorsch [3] kabi xorijiy olimlar tadqiqotlarida yoritilgan.

Xususan, Sanjai Bhagat va Brian Boltonlarning izlanishlarida korporativ boshqaruv va korporativ samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik, korporativ kapital tuzilmasi o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilgan. Ularning fikriga ko'ra, boshqaruv a'zolarining aksiyalarga egalik qilishi va bosh direktor – raisning bo'linishi bir vaqtning o'zida va keyingi operatsion ko'rsatkichlar bilan sezilarli darajada ijobiy bog'liq.

A.Shleifer va R.Vishnilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korporativ boshqaruv agentlik nazariyasi nuqtaiy nazaridan o'rganilib, investorlar tomonidan kiritilgan investitsiya mablag'larini qaytarishda menejrlarning jonbozlik ko'rsatishi bilan izohlangan. Shuningdek agentlik nazariyasining mohiyati o'rganilib, ba'zi standart egentlik modellari tadqiq etilgan.

## 2. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlashda Scopus va Web of Science kabi bazalardagi havolalarning soniga ko'ra tasniflangan ilmiy maqolalar, temir yo'l transporti sohasi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida tanlama adabiyotlar tahlili (a selective literature review), shuningdek, menejmentning zamonaviy yondashuvlari, kuzatish, qiyoslash, eksperiment, analiz, sintez, guruhlash, induksiya, deduksiya, taqqoslash kabi usullaridan keng foydalanildi.

## 3. Tahlil va natijalar

Zamonaviy korporativ boshqaruv hozirgi kunda korxonalarni samarali boshqarishning usuli bo'libgina qolmay, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xususan, takomillashgan korporativ boshqaruv natijasida iqtisodiy qo'shilgan qiymatning (economic value added – EVA) sezilarli darajada ko'payishi, samaradorlikning ortishi va riskning kamayishi yuz berishi turli empirik tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Jumladan, bir qator yetakchi ekspertlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, samarali korporativ boshqaruv yo'lga qo'yilgan kompaniyalarda iqtisodiy qo'shilgan qiymat korporativ boshqaruvning standartlari amal qilmaydigan kompaniyalarga nisbatan 8,5 foizga yuqori bo'lgan [4].

Ma'lumki, transport tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining muhim elementlaridan biri sifatida, yalpi ichki mahsulotda (YalM) o'zining sezilarli o'rniga ega hisoblanadi. Xususan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, tashish va saqlash tarmog'ining O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etadi. Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulushi avtomobil transportiga to'g'ri keldi va 55,7 % ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida temir yo'l transportining ulushi 8,4 %, yordamchi transport faoliyatining ulushi 14,9 %, havo transportining ulushi 7,6 % ni tashkil etdi [5].

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning shakllanishida temir yo'l transporti tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining sezilarli o'rni mavjud. Xususan, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan 2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy foydalanishdagi magistral temir yo'l transporti orqali jami 73,9 mln tonna asosiy turdagi yuklar jo'natilgan. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,3 % ni tashkil etadi [6]. Quyidagi jadvalda so'nggi 5 yilda temir yo'l transporti orqali yuborilgan yuklarning rivojlanish dinamikasi taqdim etilgan. (1-jadval)

1-jadval

Temir yo'l transporti orqali yuborilgan yuklarning rivojlanish dinamikasi [7]

| Yillar | O'lchov birligi | Jo'natilgan yuklar |
|--------|-----------------|--------------------|
| 2020   | mln. tonna      | 70,6               |
| 2021   | mln. tonna      | 72,0               |
| 2022   | mln. tonna      | 73,4               |
| 2023   | mln. tonna      | 73,7               |
| 2024   | mln. tonna      | 73,9               |

Yuk vagonlari parkida soz va ish holatidagi harakat tarkibi mavjudligi bevosita yuk tashish hajmining oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazib, ishlab chiqaruvchilar, yuk yuboruvchilar va transport kompaniyalar uchun ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham temir yo'l transporti tarkibidagi yirik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini oshirish, eksportbop mahsulotlar qatorini yanada kengaytirish, chet korxonalarga ko'rsatilayotgan mahsulot va xizmatlar ulushini rag'batlantirish maqsadida korxonalar tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati sifatida qayta tashkil etildi. Korxonalarda zamonaviy menejment tamoyillari asosida boshqaruvni tashkil etish maqsadida yagona aksiyador, kuzatuv kengashi va ijro organi faoliyati alohida nizomlar asosida yo'lga qo'yildi.



«O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi «Andijon mexanika zavodi» AJ va «Quyuv-mexanika zavodi» AJ kabi korxonalar yirik ishlab chiqarish quvvatlari va manbalariga ega hisoblanadi. Ushbu sanoat korxonalarining asosiy faoliyat turi Respublikada yuk tashish uchun eng zaruriy hisoblangan yuk vagonlarini ishlab chiqarish va barcha turdagi ta'mirdan chiqarish hisoblanadi. Zamonaviy dastgohlar parki, profil ta'lim yo'nalishini tamomlagan malakali mutaxassis kadrlar zaxirasi (Toshkent temir yo'l muhandislari instituti, Toshkent davlat transport universiteti hamda jahonning boshqa oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari) hamda yirik ishlab chiqarish maydonlari korxonalarda yangi mahsulot turlarini o'zlashtirishga qiyinchilik tug'dirmaydi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan korporativ boshqaruv orqali resurslardan oqilona foydalanish, xaridlar jarayonini tizimlashtirib, xarajatlarni qisqartirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish hamda mahsulot tannarxini bosqichma-bosqich kamaytirib borish sanoat korxonalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2-jadval

**«O'zbekiston temir yo'llari» AJ tarkibidagi yirik sanoat korxonalarining so'nggi 3 yillik ishlab chiqarish ko'rsatkichlari dinamikasi**

*million so'm*

| № | Korxona nomi                 | 2022 yil      | 2023 yil      | 2024 yil       |
|---|------------------------------|---------------|---------------|----------------|
| 1 | «Andijon mexanika zavodi» AJ | 207<br>655,44 | 228<br>731,76 | 277 984,6<br>1 |
| 2 | «Quyuv-mexanika zavodi» AJ   | 265<br>525,30 | 267<br>606,28 | 326<br>924,02  |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asosan, ikki yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, «Quyuv-mexanika zavodi» AJda 2024 yil davomida amaldagi narxlarida 326 924,02 mln so'mlik mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarilgan bo'lib bu ko'rsatkich o'tgan 2023 yilning mos davriga nisbatan 122%ni tashkil etadi. «Andijon mexanika zavodi» AJda esa 2024 yil davomida amaldagi narxlarida 277 984,61 mln so'mlik mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarilgan bo'lib bu ko'rsatkich o'tgan 2023 yilning mos davriga nisbatan 122%ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli Qonuniga asosan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatlari va uning ishtirokchilarining vakolat, majburiyat va huquqlari bayon etilgan. Xususan, qonunga ko'ra Kuzatuv kengashlari aksiyadorlik jamiyatlarining muhim boshqaruv organlaridan biri ekanligi hamda kompaniyalarning rivojlanishida alohida o'ringa ega ekanligi ta'kidlangan. Jumladan, qonunga ko'ra Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirib, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash ko'zda tuzilgan [10].

Yuqoridagi qonunga ko'ra Aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini ta'minlashda Kuzatuv kengashlarining o'rni yuqori ekanligi ma'lum bo'lar ekan, o'z navbatida ushbu holat Kuzatuv kengashi a'zolariga bir qator vazifa va majburiyatlarni yuklaydi. Hozirgi kunda Kuzatuv kengashi a'zolari zamonaviy bilim, zaruriyatga qarab xorijiy tajriba va strategik fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat temir yo'l

transporti sanoat korxonalarining yagona aksiyadorlari (xususan «Andijon mexanika zavodi» AJ va «Quyuv-mexanika zavodi» AJlarda ham) «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati hisoblanganligi sababli kuzatuv kengashiga nomzodlar markazlashtirilgan holda tayinlanadi. Korxonalarning boshqaruv samaradorligini oshirish hamda strategik maqsadlarga erishilishini ta'minlash maqsadida Kuzatuv kengashi a'zolarini qonunchilikda belgilangan tartibda ochiq tanlov asosida saylash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu orqali sohaga oid chuqur bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lgan professional nomzodlarni saralab olish, boshqaruv jarayoniga xalqaro amaliyot va zamonaviy uslubiyaatni joriy etishga erishish mumkin.

Shuningdek, ushbu aksiyadorlik jamiyatlari Kuzatuv kengashi a'zolariga fidutsiar majburiyatlarni tatbiq etish orqali ularda korxonaga daxldorlik tuyg'usini yana oshirish hamda strategik qarorlarni qabul qilishda jonbozlik ko'rsatilishga erishish mumkin. Fidutsiar majburiyat mohiyatiga ko'ra turli mamlakatlar korporativ huquqida turlicha izohlansa-da, sodda qilib aytganda ushbu majburiyat yollangan professional agent (menejer) ishonch bildirgan tomonning (mulkdor) manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yishi, o'z mulkiga nisbatan bo'lgani kabi kompaniya egalari mulkiga munosabat bildirishini anglatadi [8].

**jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zosidan vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilishni;

**sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zolaridan, birinchi navbatda, korxona manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilishni;

**lozim darajada ko'zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zolaridan korxonaga nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashishni;

**mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilishni talab etadi [9].

## 4. Xulosa va takliflar

Temir yo'l transporti mamlakat iqtisodiyotining qon tomlari hisoblanib, soha tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar YalMda o'zining sezilarli ulushiga ega hisoblanadi. Yuk aylanmasi, yo'lovchi aylanmasi, tranzit va eksport tashuvlari kabi muhim reja ko'rsatkichlarning bajarilishi temir yo'l harakat tarkibi, ya'ni yuk vagonlari parki soz va ish holatda bo'lishini talab etadi. Bu o'rinda yuk vagonlari parkini muntazam ravishda modernizatsiya qilingan va yangi ishlab chiqarilayotgan yuk vagonlari bilan ta'minlab turuvchi «Andijon mexanika zavodi» AJ va «Quyuv-mexanika zavodi» AJ kabi sanoat korxonalarining o'rni beqiyos.

Sanoat korxonalarining boshqaruv samaradorligini oshirish orqali belgilangan iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishishda korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyatiga o'zgartirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida muhim boshqaruv organi hisoblangan Kuzatuv kengashi sohaga doir kuchli bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan professional menejerlardan shakllanishi hamda ularga fidutsiar majburiyatlarning yuklanishi raqobatga asoslangan bozer



iqtisodiyoti sharoitida kompaniya o'z o'rnini yo'qotmasligiga zamin yaratadi.

Buning uchun bir qator takliflarni amalga oshirish zarur. Xususan:

1. Aksiyadorlik jamiyatlari Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali kengash a'zolarining fidutsiar majburiyatlar alohida belgilanishi maqsadga muvofiq.

2. Kuzatuv kengashiga nomzodlarni ochiq tanlov asosida saralab olish va ularga belgilangan aniq malaka talablarini ishlab chiqish zarur.

3. Kuzatuv kengashligiga nomzodlarni sohaga doir bilim va ko'nikmalarga, shuningdek, korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga ega bo'lgan menejerlardan tanlab olish zarur.

4. Kuzatuv kengashligiga nomzodlarni saralab olish jarayoni shaffoflik prinsipiga asoslangan holda ochiq tanlov asosida amalga oshirilishi zarur.

## Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Суюнов Д.Х., Турсунов Б.Р. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув самарадорлигини ошириш. / Central Asian Academic Journal of Scientific research. Volume 2 | Issue 2 | 2022.

[2] Хамидулин М.Б. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008. –204 с.

[3] Shleifer A., Vishny R. (1997) A Survey of Corporate Governance. The Journal of Finance, 52, 737-783; Bhagat, S., & Bolton, B. (2008). Corporate Governance and Firm Performance. Journal of Corporate Finance, 14(3), 257-273.; Fama, E. F., & Jensen, M. C. (1983). Agency Problems and Residual Claims. Journal of Law and

Economics, 26(2), 327-349.; Jensen, M. C. (1993). The Modern Industrial Revolution, Exit, and the Failure of Internal Control Systems. The Journal of Finance, 48(3), 831-880.

[4] Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув моделлари: концептуал жиҳатлар, замонавий тенденциялар ва конвергенция имкониятлари. /Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар (илмий электрон журнал). №4, июль-август, 2017 й.

[5] <https://www.uzdaily.uz/uz/2024-yilda-ozbekiston-yalpi-ichki-mahsuloti-11496-milliard-dollarini-tashkil-qildi/>

[6] [https://t.me/statistika\\_rasmiy/5535](https://t.me/statistika_rasmiy/5535)

[7] [https://t.me/statistika\\_rasmiy/5535](https://t.me/statistika_rasmiy/5535)

[8] Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув моделлари: концептуал жиҳатлар, замонавий тенденциялар ва конвергенция имкониятлари. /Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар (илмий электрон журнал). №4, июль-август, 2017 й.

[9] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "2021 — 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida 166-sonli qarori.

[10] O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli Qonuni.

## Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Sindorov  
Baxtinur  
Xolyigit o'g'li /  
Sindorov  
Bakhtinur  
Kholyigit ugli

Toshkent davlat transport universiteti  
"Korporativ boshqaruv" kafedrası  
tayanch doktoranti.  
E-mail: [Baxti.610@mail.ru](mailto:Baxti.610@mail.ru)  
Tel.: +99891 164-03-81  
<https://orcid.org/0009-0009-3445-4661>



**B. Sindorov**

*The importance of the supervisory board in the implementation of effective corporate governance principles in the management of industrial enterprises.....49*

**E. Jonikulov, R. Ayapbergenov, H. Salohiddinov, K. Fayzullaev**

*Analysis of wireless communication technologies in the control and monitoring of railway station switches.....53*

**D. Yuldoshev, K. Matrasulov**

*Analysis of methods for assessing the state of urban public transport infrastructure based on logistics principles.....59*